

## Teodor Drayzer ijodi va “Amerika fojiasi” romanining tanqidiy realizm an’analari asosida tahlili

Salimova Hulkar Hayot qizi  
hulkarsalimova1@gmail.com  
tayanch doktorant  
Osiyo Xalqaro Universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Teodor Drayzer ijodi va uning tanqidiy realizm yo ‘nalishidagi o ‘rni o ‘rganiladi. Asosiy e ’tibor yozuvchining “Amerika fojiasi” romaniga qaratilib, unda aks etgan ijtimoiy tengsizlik, boylik va qashshoqlik o ‘rtasidagi tafovut, insoniy qadriyatlarning yemirilishi kabi masalalar tahlil qilinadi. Drayzer ijodining o ‘zbek adabiyotiga ta’siri ham ko ‘rib chiqilib, uning asarlaridagi realizm unsurlarining Abdulla Qodiriy ijodi bilan bog ‘liqlik jihatlari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Teodor Drayzer, tanqidiy realizm, Amerika fojiasi, ijtimoiy tengsizlik, o ‘zbek adabiyoti, Abdulla Qodiriy.

## Анализ творчества Теодора Драйзера и романа “Американская трагедия” в традициях критического реализма

Салимова Хулкар Хаёт кизи  
hulkarsalimova1@gmail.com  
базовый докторант  
Азиатский Международный Университет

**Аннотация.** В данной статье рассматривается творчество Теодора Драйзера и его вклад в развитие критического реализма. Основное внимание уделяется анализу романа “Американская трагедия”, в котором отражены социальное неравенство, разница между богатством и бедностью, а также деградация человеческих ценностей. Также изучается влияние творчества Драйзера на узбекскую литературу, особенно на произведения Абдуллы Кадыри, выявляются элемениты реализма в их произведениях.

**Ключевые слова:** Теодор Драйзер, критический реализм, Американская трагедия, социальное неравенство, узбекская литература, Абдулла Кадыри.

## Analysis of the work of Theodore Dreiser and the novel “American tragedy” on the traditions of critical realism

Salimova Hulkar Hayot kizi  
hulkarsalimova1@gmail.com  
base doctoral student  
Asia International University

**Annotation.** This article examines the literary works of Theodore Dreiser and his contribution to the development of critical realism. Special attention is given to his novel “An American Tragedy,” which highlights social inequality, the gap between wealth and poverty, and the erosion of human values. The influence of Dreiser’s works on Uzbek literature is also analyzed, particularly in relation to Abdulla Qodiriy’s works, exploring the realism elements shared between them.

**Keywords:** Theodore Dreiser, critical realism, An American Tragedy, social inequality, Uzbek literature, Abdulla Qodiriy.

**Kirish.** Adabiyot inson tafakkurini boyituvchi, jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy hayotiga ta’sir etuvchi kuchli vositadir. Jahon adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutgan ijodkorlardan biri Teodor Drayzer bo‘lib, u tanqidiy realizm yo‘nalishining yirik namoyandalaridan hisoblanadi. Uning asarlari, xususan, “Amerika fojiasi” romani jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, inson qismati va kapitalistik jamiyatning shafqatsiz qonuniyatlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada Drayzer ijodi tahlil qilinib, uning o‘zbek adabiyoti, ayniqsa, Abdulla Qodiriylariga ta’siri yoritiladi.

Badiiy asarlarni o‘qish inson ongini yetuklikka, komillikk olib chiquvchi yagona manbadir. O‘zbek adabiyoti gulshani hamda jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘lish, inson ongini o‘stiribgina qolmay, balki uni dunyoviy ilmlardan ham xabardor qiladi. Ilm-fanning taraqqiyoti bilan tarjimachilik adabiyotga kirib kelgan va uning rivojlanishi bilan bir ko‘pgina jahon adabiyotidan bahramand bo‘lishimizga, undagi turli asarlarni o‘zbek adabiyoti durdonalari bilan qiyoslab o‘rganishimizga zamin yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu jumladan mashhur Amerika adabiyotining yetuk vakili, hech kimga o‘xshamagan asarlar muallifi bo‘lgan Teodor Drayzer asarlari ham adabiyotimiz xazinasini boyitdi.

**Asosiy qism.** XIX asr oxiri va XX asr boshida qaror topgan tanqidiy realizm adabiyoti o‘z mohiyati bilan demokratik xarakterdadir. Tanqidiy realizm burjua jamiyati va uning zulm dahshatlariga qarshi noroziliklarni aks ettiradi. Har bir yozuvchining qobiliyati va dunyoqarashiga qarab bu norozilik turli me’yorda, ba’zilarida kuchli, ba’zilarida mo‘tadil namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga realistlar o‘z ijodlarida tinchlik, ozodlik g‘oyalarini ham ifoda etadilar. G‘arb adabiyotining rivojiga muhim hissa qo‘shgan mana shunday buyuk realist yozuvchilardan biri Teodor Drayzer. Mashaqqatli hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tgan Drayzer Amerika adabiyotida sotsialistik realizm metodini boshlab bergen adibdir. Jahon adabiyotida tabiat tomonidan in’om etilgan talantdir. Keling Drayzer asarlari yana bir nazar tashlaylik.

Drayzer Amerika haqiqatining “kulrang, kundalik hayotini” aks ettiruvchi, Amerikaning “cheksiz imkoniyatlar” mamlakati haqidagi afsonani ochib beradigan bir nechta romanlarni yaratdi. Xalq ahvoli bilan yaqindan tanishishi uning kelajakdagi ijodiga material bo‘lib xizmat etadi. Uning ijodi 1900 yildan boshlanadi. Birinchi romani “Baxti qaro Kerri” chiqadi. 1911 yildagina uning ikkinchi romani “Jenni Gerhardt” yuzaga keladi. Undan so’ng ketma-ket “Moliyachi”, “Titan”, “Daho” romanlari yoziladi. Birinchi jahon urushidan so’ng 20-yillarda o‘rtasida ikki toqli “Amerika fojiasi” chiqqach, adib yirik tanqidiy realist sifatida butun dunyoga taniladi.

Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” asari orqali 1906 yilda Amerikada sodir bo‘lgan voqealar, ijtimoiy muhit, xalq orasidagi ba’zi ma’naviy va moliyaviy qashshoqliklarni o‘z ichiga oladi. Bu ishni mantiqan ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchisida o‘quvchi dinjiy topshiriq bilan Amerika shaharlariga dindor oilasi bilan boradigan bosh qahramon Klayd Griffits bilan uchrashadi. Qashshoqlikda yashayotgan yigit ota -onasining dunyoqarashiga begona, ular iloji boricha ko‘p odamlarni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilishni o‘z burchlari deb bilishadi. Yigit, butun qalbi bilan yaxshiroq hayotga intilib, mehmonxonada xabarchi bo‘lib ishga kirdi, u yerda yangi do‘stlar yaxshi hayotni bilmagan yigitni spirtli ichimliklar va fohishalarga tashrif buyurish bilan tanishtirishdi.

Boy mehmonlarning bo‘sh vaqtini tomosha qilgan Klaydning boylikka bo‘lgan ishtiyoqi tobora oshib bordi. Romanning keyingi qismi Chikagoda boshlanadi. Aynan o‘sha yerda bosh qahramon ona yurtida sodir bo‘lgan yoqimsiz hodisadan keyin qochib ketadi. Katta imkoniyatlar bo‘lgan shaharda u amakisi bilan uchrashdi, u uni yoqalar fabrikasida ishga taklif qildi. Griffits taklifni qabul qildi va darhol Nyu -Yorkdagi Likurgga ko‘chib o‘tdi. Ishlab chiqarishda mehnatkash yigit iloji boricha tez lavozimga ko‘tarilishni xohlab qoladi. Xuddi shu davrda uning shaxsiy hayotida o‘zgarishlar ro‘y beradi. U o‘z qo‘l ostida ishlaydigan ishchi xodimni, Robertani sevib qoladi va kamtarin yosh xonimning hayotida muhim o‘rin tutgan bir paytda uning hayotida adashgan aristokrat Sondra paydo bo‘ladi. Teodor Drayzer tasvirlagan muhit sharq hayotidan ancha uzoq. Sharqda oila muqaddas hisoblanadi.

Oilada ota-onaning o‘rni katta. Ular tarbiyaning ilk o‘chog‘i, farzandlarga hayot haqida, qanday yashash to‘g‘risida qimmatli o‘git bera oladigan insonlardir. Oilada oilaga bo‘lgan ishonch,

hurmat shakllantiriladi. Oilaning qadrini bilgan inson esa oilasiz yashay olmaydi. U g‘arb hayotida ustun bo‘lgan “erkinlik”ni oilaviy baxtga alishmaydi. Bu erkinlik sharq odami uchun kulfatdir. Osiyo ayollar uchun Gortenziya kabilarning hayoti axloqsizlikning namunasi hisoblanadi. Ular bunday yashashdan uyalishadi. Osiyoda hech qachon o‘zgalar taqdiriga befarq qaralmaydi. Shu yo‘l bilan yoshlar tarbiya qilinadi. “Bir bolaga yetti mahalla ota-on” deyilganidek, nomaqlar harakat qilayotgan odam borki, unga uchragan yoshi ulug‘ inson nasihat qilishi va uni yo ‘ldan qaytarishi farzdir. Odamlar bir-birini o‘zi tarbiyalaydi. Jamiyat uchun qonun-qoida ham insonlarning o‘zidir. Hech bir davlat qonuni odamlar fikrichalik qudratga ega emas. Jamiyat a’zolari o‘zgalar fikrini o‘ylab qadam tashlashadi. Shuning uchun Drayzer yozgan muhit anchayin bizni hayratga soladi. O‘z farzandlari hayotiga aralashish huquqiga ega bo‘lmagan ota-onalarni ko‘rib hayron qolamiz. Sharqda esa bola yetmish yoshida ham ota-onasi uchun go‘dakdir.

Adib tasvirlagan voqealarda asosiy ayb jamiyat hamda uning a’zolari miyasiga o ‘rnashib qolgan bo‘lmag‘ur fikrlarda. O‘zini ko‘rsatishga bo‘lgan intilish, boshqalardan ustun bo‘lish asl xudbinona xayollar bo‘lib, ular albatta, insonni chegaradan og‘diradi va har ko‘yga soladi. Asar qahramoni Gortenziya Brigs ham oxiri borib o‘ziga bo‘lgan muhabbat hamda nochorligi bilan yolg‘iz qoladi. Adib atayin uning taqdirini yechimsiz qoldiradi. Qizning hayoti qanday davom etganini o‘quvchi o‘zi tasavvur qilishi qiyin emas. Zero, xudbinlik insonni pushaymonlikka olib borishi tabiiy.

Asar qahramoni Klayd Griffits qashshoqlikdan qiynalgan hayotidan chiqib, ulkan dabdabaga erishib, oliy toifali odamdek yashashni orzu qiladi. Mehmonxona xizmatchisi bo‘lib ishlaganida, mol-mulki bilan hech qanday muammosi bo‘lmagan odamlarni tez-tez kuzatar, ular kabi bo‘lishga intiladi. Yuqori tabaqaning jamiyatdagi kambag‘allarga nisbatan past munosabati, ular bilan zo‘rg‘a aloqa o‘rnatishi, ularni teng deb bilmaligi ko‘pchilikni boylik, obro‘-e’tibor, boylikka erishish uchun hamma narsaga tayyor bo‘lgan tubsiz robotga aylantirishi mumkin. Klayd o‘tkinchi dabdaba uchun ham kechirib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘yadi, u jamiyatda egallashi kerak bo‘lgan yuksak mavqeini yo‘qotmaslik, jamiyatni buzmaslik uchun begunoh qizning qotiliga aylanadi.

Yuqorida eslatib o‘tilganidek, “Amerika fojiasi”ning ikkinchi qismi yigitning amakisi boy sanoatchi Samuel Griffitsga tegishli bo‘lgan fabrikaning oddiy ishchisi Klayd Griffits va Roberta Olden o ‘rtasidagi munosabatlar voqeasini hikoya qiladi. Uchinchi qism – bu asarning yuridik qismi bo‘lib, ikkinchisining uzviy davomi – bunda jinoyat chuqr tahlil qilinadi, sud bo‘lib o‘tadi, va hukm o‘qilganidan keyingi Klayd ongidagi ma’naviy o‘zgarishlarni ko‘rsatib beradi.

Bu asar nafaqat Amerika adabiyoti balki jahon adabiyotining eng sara asarlaridan biri. Ushbu romanda boylik va kambag‘allik orasidagi kuchli tafovutni aks ettiruvchi Amerikacha yo‘l ko ‘rsatib berilgan.”Amerika fojiasi” asarini o ‘qiganda biz asarning asosiy qahramonlari bilan tanishdik. Ushbu asar voqealarga, hayajonli fursatlarga yanada boy, boylik ketidan quvgan, shunday hayotni umri davomida orzu qilgan, ammo bunday to‘kis hayotga mehnat va mashaqqatsiz erishishni orzu qilgan qahramonning bu xom xayoli uni mudhish jinoyatga yetaklaydi. O‘quvchi o‘z qahramonining ruhiy holati bilan tanisharkan, bunday taqdirga aslida uning o‘zi emas, uni tarbiyalagan oilaviy muhit, uni tarbiyalagan jamiyat sababchi ekanligini tushunadi. Klayd Grifitsning elektir kursida o‘ldirilishi uning taqdiri bilan qanchalik bog‘liqligi, sevgi- muhabbat rishtasining bunday shafqatsiz hayot ta’sirida hech qanday ahamiyat kasb etmasligi, insoniy tuyg‘ular o‘rnini egallagan qabohat o‘quvchi qalbini larzaga soladi. Bu asar orqali o‘quvchi hayotning qadriga yetish, halol yashash va sof muhabbat nima ekanligini tushunib yetadi.

E’tibor beradigan bo‘lsak asarning birinchi qismida Klaydning opasi Esta Griffiths oiladagi ijtimoiy ahvolning og‘rligi, moddiy qiyinchiliklardan qutilish maqsadida bir mashhur aktyorni sevib qoladi va undan homilador bo‘lish, keyin u aktyor o‘z obro‘yiga putur yetkazmaslik uchun uni tashlab qochib ketishi, yoki bo‘lmasa asarning ikkinchi qismidagi Roberta Olden ham oilaviy turmush tarzining og‘irligi tufayli boshqa shaharga ishga borishi va u yerda Klayd bilan sevishib homilador bo‘lishi kabi voqealarni yozuvchi Teodor Drayzerning shaxsiy hayotidan lavhalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Drayzer opalarining asardagi hayoti qahramonlaridir. Yozuvchining opa-singillari Meri

va Silviya asar qahramonlari uchun prototip sifatida xizmat qilishgan. Meri jamiyatning axloqiy me'yorlarini buzadi va boshqa bir inson tomonidan homilador bo'ldi. U mashhur siyosatchi, lekin sevgilisi o'z mavqeini yo'qotmaslik uchun uni tark etadi. Besh yil o'tib, xuddi shunday taqdir Silviya bilan sodir bo'ldi. Bu voqealar sodir bo'lganda Drayzer juda yosh edi va bu unga qattiq ta'sir qildi.

Teodor Drayzer o'sha davrdagi ijtimoiy hayotni, burjua jamiyatining ma'naviy zaifligini uchala romanida ham qoralaydi. U noto'g'ri turmush tarzi tabiatni o'z tuzog'iga olib borishini, qalbi pok, ma'naviyati kuchli, axloqli odamlarni halokatga olib borishini ko'rsatishga harakat qildi. Darhaqiqat, ko'plab tanqidchilarining tahdidlariga qaramay, real hayotni tiniq ko'rsata olgan adib kitobxonlar orasida alohida hurmat va qiziqishga sazovor bo'ldi, asarlari xalq orasida keng tarqalgan.

**Xulosa.** Amerika va jahon adabiyotiga ulkan takrorlanmas hissa qo'shgan buyuk yozuvchi Teodor Drayzer 1945 –yil 28 dekabrda 75 yoshida vafot etdi, ammo u yozgan betakror asarlar hozirgi davrda ham qiziqish bilan o'qilmoqda.

Teodor Drayzer ijodi tanqidiy realizmning yorqin namunalaridan biri bo'lib, uning asarlarida inson hayoti, ijtimoiy adolatsizlik va kapitalistik dunyo tasviri chuqur yoritiladi. "Amerika fojiasi" romanida muallif inson qismati va jamiyatdagi murakkab munosabatlarni tasvirlash orqali o'quvchini chuqur o'nya soladi. Ushbu maqolada Drayzer asarlari va uning o'zbek adabiyotiga, xususan, Abdulla Qodiriy ijodiga ta'siri o'rganildi. Ularning asarlaridagi realizm unsurlari tahlil qilinib, jamiyatning ma'naviy inqirozi va inson qismatiga ta'siri o'rganildi.

### Adabiyorlar ro'yxati:

1. Ochilov U. S. "Teodor Drayzer va Abdulla Qodiriy ijodida naturalizm xususiyatlari" PhD dissertatsiyasi. – B. 32, 2020.
2. Muradovich, R. M. "The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers". Eurasian Research Bulletin. – Buxoro, O'zbekiston, 2021. – B. 3, 7-12.
3. Dreiser, Theodore. *An American Tragedy*. Simon & Schuster, 2005.
4. Drayzer, Teodor. *Amerika fojiasi*. Asaxiy Books, 2018.
5. Normatova, Sh. *Jahon adabiyoti*. O'qituvchi, 2008. Ochilov, Sayfulloyevich, Baqoyeva, M.Q., va Ochilov, U.S. "Teodor Drayzer 'Amerika Fojiasi' romani - Naturalizm ijodiy metodining yorqin namunasi." *Xorijiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari*, SamDChTI, 27-avgust 2020.
6. Ochilov , Ulug'bek. "Stiven Kingning 'Doktor Uyqu' Asarida Mistik Va Real Dunyo o'rtaqidagi Chegaralar". *Lingvospektr*, vol. 1, no. 1, Jan. 2025, pp. 31-36, <https://lingvospektr.uz/index.php/Lngsp/article/view/309>.
7. Очилов УС. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ВА ТЕОДОР ДРАЙЗЕРНИНГ АСАРЛАРИДА НАТУРАЛИЗМ ТАМОЙИЛЛАРИ. EDITORIAL BOARD. 2022 May 17:650.
8. Sayfulloyevich, Ochilov. "Naturalistic Features In Abdulla Qodiriy's "Bygone Days"." *International Journal of Progressive Sciences and Technologies* [Online], 28.2 (2021): 333-337. Web. 24 Mar. 2023
9. Очилов, Улугбек Сайфуллоевич. "АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ "ОБИД КЕТМОН" ҚИССАСИДА КОЛХОЗ МАВЗУСИ ВА УНИНГ СОЦИАЛИСТИК РЕАЛИЗМ АДАБИЙ МЕТОДИГА ХОСЛИГИ." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 155-157.
10. Ochilov, Ulugbek Sayfulloyevich. "NATURALISTIC IMAGES IN THE NOVEL "SISTER CARRIE" BY THE AMERICAN WRITER THEODORE DREISER." *Scientific reports of Bukhara State University* 4.3 (2020): 179-183.
11. Ochilov, U. «Teodor Drayzerning „Baxti Qaro Kerri“ Asaridagi Takrorlar Tasnifi Va Ularning Matnda Bajargan Vazifasi». ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), т. 6, вып. 6, июль 2021 г.,
12. Ochilov, Ulugbek. "AQSH va ozbek adabiyotshunosligida naturalizm adabiy oqimiga munosabat." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 6.6 (2021).

13. Ochilov, Ulugbek. "Teodor Drayzerning" Daho" romanidagi Yujin Vitla-hirsu havasga yengilgan daho obrazi." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*) 8.8 (2021).

14. Очилов, Улугбек Сайфуллоевич. "АМЕРИКА ЁЗУВЧИСИ ТЕОДОР ДРАЙЗЕРНИНГ—БАХТИҚАРО КЕРРИ||(*—SISTER CARRIE*) РОМАНИДА НАТУРАЛИСТИК ОБРАЗЛАР НАТУРАЛИСТИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В РОМАНЕ АМЕРИКАНСКОГО ПИСАТЕЛЯ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «СЕСТРА КЕРРИ» NATURALISTIC IMAGES IN THE NOVEL—*SISTER CARRIE*|| BY." *ANIQ VA TABIIY FANLAR*: 179.